

**OLIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.33.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

OLIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH TADQIQOTLARI MARKAZI

MAMARASULOV MAXMUD JUMABOYEVICH

**OLIY TA'LIMNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA O'QUV
JARAYONINI BOSHQARISH MEXANIZMLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.07 – Ta'limda menejment

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on pedagogical
science**

Mamarasulov Maxmud Jumaboyevich

Oliy ta'limni raqamlashtirish sharoitida o'quv jarayonini boshqarish
mexanizmlarini takomillashtirish..... 3

Мамарасулов Махмуд Жумабоевич

Совершенствование механизмов управления образовательным
процессом в условиях цифровизации высшего образования..... 25

Mamarasulov Maxmud Jumaboyevich

Improvement of educational process management mechanisms in conditions
of digitization of higher education..... 49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of publications..... 53

**OLIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.33.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

OLIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH TADQIQOTLARI MARKAZI

MAMARASULOV MAXMUD JUMABOYEVICH

**OLIY TA'LIMNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA O'QUV
JARAYONINI BOSHQARISH MEXANIZMLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.07 – Ta'limda menejment

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.Phd/Ped5333-raqam bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

Dissertatsiya Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.bimm.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Maxsumova Sadoqat Qosimjon qizi

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar

Zaripov Lochin Rustamovich

pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Jo'rayev Voxid Tojimatovich

pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti huzuridagi PhD.03/2025.27.12.Ped.33.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026 yil 24 08 kuni soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 3-uy. Tel: (99871) 202-01-20; faks: (99871) 202 01 21, e-mail: info@bimm.uz).

Dissertatsiya bilan Oliy ta'lim tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (38 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 3-uy. Tel: (99871) 202-01-20; faks: (99871) 202-01-21.

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil 03 avgust kuni tarqatildi.
(2026 yil 03 avgust dagi 11 raqamli reyestr bayonnomasi).



U.Sh.Begimkulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, p,f,d, professor

A.S.Djuraev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, p,f,d, (DSc), dotsent

Ya.U.Ismadiyarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, p,f,d, (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ta'lim tizimida raqamlashtirish sharoitida o'quv jarayonini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish bugungi kunda global miqyosda dolzarb masalalardan biriga aylangan. Hozirgi vaqtda dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalarida ta'limni raqamlashtirish ustuvor yo'nalish sifatida e'tirof etilmoqda. Jumladan, uzoq tarixiy an'analarga ega bo'lgan Oksford, Kembrij, Sorbonna kabi nufuzli universitetlar ham raqamli ta'lim imkoniyatlaridan samarali foydalanishga alohida e'tibor qaratmoqda. Ilmiy tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, raqamlashtirish jarayoni ta'lim tizimida nafaqat texnik yangilanishni, balki o'quv jarayonini boshqarishning mazmunan transformatsiyasini ham ta'minlaydi. Xususan, raqamli ta'lim muhitida sun'iy intellektga asoslangan tahlil vositalari¹ hamda turli texnologiyalar orqali ta'lim jarayonini individuallashtirish, monitoring qilish va baholash imkoniyatlari kengaymoqda. Bu esa o'z navbatida ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Dunyoning ilmiy markazlarida erishilgan ilg'or pedagogik tajribalarga ko'ra, oliy ta'limni raqamlashtirish sharoitida o'quv jarayonini samarali tashkil etish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Raqamli transformatsiya jarayonlari ta'lim mazmuni, shakli va boshqaruv tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatib, oliy ta'lim muassasalarida boshqaruvning innovatsion, moslashuvchan va integratsiyalashgan yondashuvlarini joriy etishni taqozo etmoqda. Mazkur yo'nalish ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, inson kapitalini yuksaltirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda milliy ta'lim tizimining global ta'lim makoniga integratsiyalashuvini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Yangi O'zbekistonda ham oliy ta'lim tizimini raqamlashtirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, shuningdek, sun'iy intellekt asosida boshqaruv mexanizmlarini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ta'limni raqamlashtirish asosida boshqaruvni tashkil etish o'qitish sifatini oshirish, ma'muriy jarayonlarni soddalashtirish hamda manfaatdor tomonlar o'rtasida samarali muloqot va hamkorlikni ta'minlashga xizmat qiladi². Oliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalar keng joriy etilayotganiga qaramay, oliy ta'lim muassasalari faoliyatida ta'lim jarayonining alohida elementlari yuqori darajada raqamlashtirilgani bilan ularni integratsiyalashgan holda boshqarish mexanizmlarining ilmiy-metodik jihatdan yetarlicha ishlab chiqilmagani o'rtasida ziddiyat saqlanib qolmoqda. Ma'lumotlar tahlili, ta'lim sifati monitoringi va boshqaruv qarorlarini avtomatlashtirishga asoslangan yaxlit raqamli boshqaruv modellarining mavjud emasligi ta'lim tizimi samaradorligini pasaytirmoqda.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 22-oktabrdagi PF-189-son "Sun'iy intellekt texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/7789403>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 6-dekabrda PF-243-son "Davlat xizmatida boshqaruv samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi farmoni. <https://www.lex.uz/uz/docs/7886963>

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida” qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 22-oktabrdagi PF-189-son “Sun’iy intellekt texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 16-sentabrdagi PQ-286-son “Respublikaning hudud, soha va tarmoqlarida raqamli texnologiyalar joriy etilishini yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-sonli “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2020-yil 6-oktabrdagi PQ-4851 “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Oliy ta’limda raqamli texnologiyalarni joriy etishning nazariy va amaliy jihatlarini B.P.Abdullayev, R.X.Djuraev, B.Sh.Usmonov, O.S.Temirov, T.T.Shoyardonovlar tomonidan o‘rganilgan. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarini raqamlashtirish strategiyasi, axborot-ta’lim muhitini shakllantirish va kredit-modul tizimini joriy etish masalalari B.X.Xajayev, U.Sh.Begimqulov, S.T.Norkulov, Ya.U.Ismadiyarov, L.R.Zaripov tadqiqotlarida yoritilgan. Boshqaruv qarorlarini qabul qilish, ta’lim sifati monitoringi hamda boshqaruv mexanizmlari bo‘yicha A.D.Askarov, A.A.Xo‘jayev, R.Sh.Shamuratovlar ilmiy izlanishlar olib borgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) olimlaridan T.I.Chinaeva, B.A.Sazonov, O.A.Sheredekina tomonidan raqamli ta’limning nazariy asoslari ishlab chiqilgan bo‘lsa, V.A.Bogush, O.V.Shteymark, V.G.Larionov, Ye.A.Kazaeva tomonidan ta’limni boshqarish, sifat monitoringi va raqamli muhitni shakllantirish masalalari o‘rganilgan. Shuningdek, axborot texnologiyalarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish A.A.Kurmangulov, N. Kamnina, A.Yu.Cherepkov ishlarida o‘z aksini topgan.

Xorijiy olimlar A.Haleem, L.Pauell, K.Mok, N.Fathema tadqiqotlarida raqamli ta'lim muhitini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Shu bilan birga, T.Maes, G.Kane, S.Matt tomonidan ta'lim jarayonini raqamli transformatsiya qilish mexanizmlari tahlil qilingan. O'quv jarayonida raqamli texnologiyalar va platformalardan foydalanish masalalari esa D.Kozlova, A.Saykili, N.Charness ishlarida keng yoritilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini raqamlashtirish, pedagoglar faoliyati samaradorligini oshirish, o'qitishning ilg'or texnologiyalaridan maqsadli foydalanish, o'quv-uslubiy ta'minotini yaxshilash texnologiyalari" (2022-2025-yy.) mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi oliy ta'limni raqamlashtirish sharoitida ta'lim jarayonini boshqarish modeli va mexanizmlarini ishlab chiqish hamda ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini raqamlashtirish orqali boshqarishning nazariy asoslari tahlil qilish va uni takomillashtirishga oid zamonaviy ilmiy yondashuvlarni aniqlash;

oliy ta'limni raqamlashtirish asosida o'quv jarayonini boshqarish mexanizmini ishlab chiqish;

o'quv jarayonini raqamlashtirish orqali boshqarish modelini takomillashtirish;

o'quv jarayonini boshqarishda raqamlashtirish samaradorligini baholash uchun integrallashgan miqdoriy va sifat ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida oliy ta'lim tizimini raqamlashtirish sharoitida ta'lim jarayonini boshqarish belgilanib, tajriba-sinov ishlarida Andijon davlat universiteti, Buxoro davlat pedagogika instituti, Guliston davlat pedagogika institutlaridan jami 346 nafar talabalar, professor-o'qituvchi va boshqaruv xodimlari ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmetini raqamli texnologiyalar, ma'lumotlar tahlili va raqamli platformalar asosida ta'lim jarayonini boshqarishni takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik, axborot-texnologik va boshqaruv mexanizmlari, modellari va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlar jarayonida belgilangan maqsad va vazifalar doirasida ilmiy-metodik manbalarni o'rganish va tahlil qilish, elektron so'rovnomalar, modellashtirish, pedagogik tajriba-sinov hamda matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini raqamlashtirish orqali boshqarishning nazariy asoslari tizimli-kompetensiyaviy paradigma, innovatsion pedagogik menejment, data-driven boshqaruv va adaptiv monitoring-baholash mexanizmlarining uyg'unligini ta'minlovchi mazmuni, strategik g'oyasi va amaliy

ahamiyati, boshqaruv samaradorligi hamda raqamli transformatsiya jarayonlarini optimallashtirish nuqtai nazaridan asoslab berilgan;

oliy ta'limni raqamlashtirish sharoitida o'quv jarayonini boshqarishning konseptual mexanizmi maqsadli, tashkiliy, texnologik-operativ, monitoring-baholash va reflektiv-takomillashtirish bosqichlarining funksional integratsiyasini ta'minlovchi raqamli ta'lim ekotizimi sifatida, jarayonlarni adaptiv boshqarish, boshqaruv samaradorligini oshirish va sifatini uzluksiz takomillashtirish asosida ishlab chiqilgan;

o'quv jarayonini raqamlashtirish orqali boshqarish modelining mazmun bloki boshqaruv algoritmini tashkil etuvchi avtomatlashtirilgan ta'limni boshqarish tizimi (LMS), o'quv axborot resurslari, raqamli kutubxona va monitoring-tahlil kompleksining yagona raqamli muhitda uyg'unlashuvi orqali qarorlarni real vaqt rejimida ma'lumotlarga asoslangan holda qabul qilishni ta'minlash asosida takomillashtirilgan;

o'quv jarayonini boshqarishda raqamlashtirishning samaradorligi o'quv natijadorligi va sifati, boshqaruv tizimi unumdorligining o'sish dinamikasini aks ettiruvchi raqamli indikatorlar, monitoring-tahlil vositalari hamda pedagogik ekspert baholash metodikasini o'zida birlashtiruvchi miqdoriy-sifat ko'rsatkichlarining integrallashgan tizimi asosida aniqlashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ta'lim muassasalari uchun "Registrator ofisi"ning tarkibiy tuzilmasi, lavozim vazifalari va namunaviy nizomi ishlab chiqilib, muassasalarda tatbiq etilgan;

tadqiqot natijalariga asoslanib, oliy ta'lim tizimi uchun "Informatika va raqamli texnologiyalar" darslik hamda "Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo'llash" nomli o'quv qo'llanma nashr etilgan;

"Oliy ta'limda axborot-kutubxona xizmatini raqamlashtirish: unilibrary.uz elektron kutubxona platformasi", "O'zbekistonda oliy ta'lim: 100 savolga 100 javob" va "Oliy ta'lim islohotlari: son va sifat ko'rsatkichlari" metodik qo'llanmalari yaratilgan va amaliyotga tatbiq etilgan;

oliy ta'lim muassasalarida professor-o'qituvchilar, yosh tadqiqotchilar va talabalarining o'quv hamda ilmiy adabiyotlardan foydalanishini soddalashtirish maqsadida "Elektron kutubxona" (unilibrary.uz) platformasi takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi: qo'llanilgan usullar, yondashuvlar va ilmiy-metodik asoslanganligi, tahlil va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, ilmiy-metodik takliflarning amaliyotda joriy etilganligi, tadqiqot vazifalariga mos metodlar qo'llanilganligi, tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik-statistik usullar bilan asoslangani, tadqiqot maqsadi va vazifalari o'zaro mutanosibliigi hamda xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda natijalarning mutasaddi tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati raqamlashtirish sharoitida o'quv jarayonini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish, ta'lim sohasidagi innovatsiya va texnologik rivojlanishni oshirish, yangi ta'lim platformalari, dasturlar va texnik vositalarni o'quv jarayonida qo'llash,

o'quv natijalarini baholashga qaratilgan innovatsion usullarni o'rganilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati o'quv jarayonini raqamlashtirish orqali samarali boshqarish va o'quv natijalarini yuqori darajada baholash imkoniyatini ta'minlaydi. Shuningdek, raqamlashtirish sharoitida o'quv jarayonini boshqarish tizimini rivojlantirish va takomillashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar o'quv jarayoni samaradorligini oshirish uchun xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oliy ta'limni raqamlashtirish sharoitida o'quv jarayonini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini raqamlashtirish orqali boshqarishning nazariy asoslari tizimli-kompetensiyaviy paradigma, innovatsion pedagogik menejment, data-driven boshqaruv va adaptiv monitoring-baholash mexanizmlarining uyg'unligini ta'minlovchi mazmuni, strategik g'oyasi va amaliy ahamiyati, boshqaruv samaradorligi hamda raqamli transformatsiya jarayonlarini optimallashtirish nuqtai nazaridan asoslab berilgan taklif va tavsiyalardan "Registrator ofisi"ni tashkil etish to'g'risidagi namunaviy nizom loyihasini ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 28-avgustdagi 4/17-01/13-215-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, oliy ta'lim muassasalarida "Registrator ofisi" faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari takomillashtirilib, uning namunaviy tashkiliy tuzilmasi, bo'linmalari va lavozim vazifalari ishlab chiqildi hamda amaliyotga joriy etilishi orqali o'quv jarayonini boshqarish samaradorligi, shaffofligi va tezkorligi oshirildi;

oliy ta'limni raqamlashtirish sharoitida o'quv jarayonini boshqarishning konseptual mexanizmi maqsadli, tashkiliy, texnologik-operativ, monitoring-baholash va reflektiv-takomillashtirish bosqichlarining funksional integratsiyasini ta'minlovchi raqamli ta'lim ekotizimi sifatida, jarayonlarni adaptiv boshqarish, boshqaruv samaradorligini oshirish va sifatini uzluksiz takomillashtirish asosida ishlab chiqilgan takliflar "Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo'llash" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 25-iyundagi 218-son buyrug'i asosida berilgan 218-663-raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, monitoring va baholashning raqamli ko'rsatkichlari asosida o'quv jarayonini adaptiv boshqarish, muammoli yo'nalishlarni tezkor aniqlash, ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish hamda ta'lim sifati va boshqaruv samaradorligini uzluksiz takomillashtirish imkoniyati yaratildi;

o'quv jarayonini raqamlashtirish orqali boshqarish modelining mazmun bloki boshqaruv algoritmini tashkil etuvchi avtomatlashtirilgan ta'limni boshqarish tizimi (LMS), o'quv axborot resurslari, raqamli kutubxona va monitoring-tahlil kompleksining yagona raqamli muhitda uyg'unlashuvi orqali qarorlarni real vaqt rejimida ma'lumotlarga asoslangan holda qabul qilishni ta'minlash asosida takomillashtirishga doir takliflardan "Elektron kutubxona" (unilibrary.uz) axborot tizimini rivojlantirishda foydalanilgan (Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2023-yildagi 02/01-01-193-sonli ma'lumotnomasi). Natijada o'quv

axborot resurslari, elektron kutubxona va monitoring-tahlil kompleksining yagona raqamli muhitda integratsiyalashuvi asosida moderatorlar, kutubxonachilar va foydalanuvchilar faoliyati soddalashtirilib, ish samaradorligini oshirishga erishildi;

o'quv jarayonini boshqarishda raqamlashtirish samaradorligi o'quv natijadorligi va sifati, boshqaruv tizimi unumdorligining o'sish dinamikasini aks ettiruvchi raqamli indikatorlar, monitoring-tahlil vositalari hamda pedagogik ekspert baholash metodikasini o'zida birlashtiruvchi miqdoriy va sifat ko'rsatkichlarining integrallashgan tizimi asosida aniqlashtirilgan takliflar "Informatika va raqamli texnologiyalar" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-sentabrdagi 438-son buyrug'i asosida berilgan 438288-raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada ta'lim jarayonini boshqarishda raqamli indikatorlar va monitoring-tahlil vositalarini qo'llash orqali o'quv natijadorligi, ta'lim sifati hamda boshqaruv tizimi samaradorligini oshirish ilmiy jihatdan asoslantirildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 11 ta ish, jumladan, 1 ta darslik, 1 ta o'quv qo'llanma, 1 ta metodik qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosida ilmiy natijalari chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 8 ta (6 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda) e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovadan iborat. Dissertatsiya hajmi 127 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va uni amalga oshirish zarurati ilmiy asoslangan holda yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning maqsadi, obyekti va predmeti aniq belgilab berilgan, ilgari surilgan ilmiy faraz hamda uni tekshirishga qaratilgan vazifalar tizimli ravishda ifodalangan. Bundan tashqari, tadqiqotning ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati chuqur tahlil asosida ochib berilgan, olingan natijalarning ishonchliligi tegishli metodologik yondashuvlar orqali asoslangan. Dissertatsiya natijalarining amaliyotga joriy etilishi, asosiy ilmiy qoidalar va xulosalarning aprobatyasi hamda tadqiqot doirasida erishilgan muhim natijalar haqida tizimli va izchil ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Oliy ta'limni raqamlashtirish asosida o'quv jarayonini boshqarishning nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida o'quv jarayonini raqamlashtirish orqali boshqarishga oid nazariy va uslubiy yondashuvlar kompleks tarzda tahlil etilgan. Ushbu bobda oliy ta'limni raqamlashtirishning mazmun-mohiyati ochib berilib, asosiy tushunchalar ilmiy jihatdan tizimlashtirilgan. Shuningdek, ta'lim jarayonini samarali boshqarishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning nazariy asoslari chuqur o'rganilgan hamda ilg'or xorijiy tajribalar qiyosiy-tahliliy yondashuv asosida, xususan, taqqoslama jadvallar orqali tahlil qilingan.

Oliy ta'limni raqamlashtirish o'quv va ma'muriy jarayonlarni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida transformatsiya qilish va ularni raqamli muhitda samarali boshqarishni nazarda tutadi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim tizimini raqamlashtirish strategik ustuvor yo'nalish sifatida qaralib, davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlanmoqda.

Bizning yondashuviga ko'ra, axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga joriy etish faqat masofaviy ta'lim bilan cheklanmay, balki o'quv jarayonini tashkil etish, ta'lim natijalarini monitoring va nazorat qilish, shuningdek, barcha ishtirokchilar o'rtasida samarali kommunikatsiya va hamkorlikni ta'minlovchi kompleks tizimni o'z ichiga oladi. Bu esa ta'lim jarayonining elektron muhitda yaratilishi, saqlanishi va taqdim etilishini yaxlit holda tashkil etishni anglatadi.

Raqamlashtirish natijasida ta'lim jarayonini individuallashtirish, talabalarning ehtiyoj va qobiliyatlariga moslashuvchan o'qitishni yo'lga qo'yish, geografik va vaqt bilan bog'liq cheklovlarni bartaraf etish imkoniyati yuzaga keladi. Natijada, ta'lim global miqyosda ochiq, qulay va ommabop tizimga aylanadi.

Raqamlashtirish jarayoni XXI asrda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida shakllangan yangi fenomen bo'lib, u "to'rtinchi sanoat inqilobi"ning muhim tarkibiy qismi sifatida e'tirof etiladi. Shu bois, oliy ta'lim tizimini raqamlashtirish keng qamrovli vazifalar majmuasini o'z ichiga oladi. Jumladan:

- ta'lim mazmunini (darsliklar, ilmiy adabiyotlar, o'quv materiallari) raqamlashtirish va onlayn platformalarda taqdim etish;
- masofaviy va aralash ta'lim shakllari uchun onlayn kurslar hamda dasturlarni ishlab chiqish va joriy etish;
- talabalar va professor-o'qituvchilar o'rtasida samarali muloqot va hamkorlikni ta'minlovchi raqamli platformalarni keng qo'llash;
- ta'lim natijalarini monitoring qilish va optimallashtirishda ma'lumotlar tahlilidan foydalanish.

Oliy ta'limni raqamlashtirish jarayonlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar ta'sirida ta'lim tizimining mazmuni, o'quv jarayonining tashkiliy modeli, asosiy ishtirokchilarning roli hamda ta'limni boshqarish mexanizmlari tubdan o'zgarib bormoqda.

Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini samarali tashkil etish va boshqarish masalasi pedagogika, menejment va axborot texnologiyalari kesishmasida shakllangan kompleks ilmiy yo'nalish hisoblanadi. Ushbu jarayonni boshqarishning nazariy asoslari ta'lim tizimining maqsadga yo'naltirilganligi, tizimliliigi, uzluksizligi va samaradorligi kabi umumiy qonuniyatlarga tayanadi.

O'quv jarayonini boshqarish, avvalo, ta'limni rejalashtirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish, nazorat qilish va baholash kabi boshqaruv funksiyalarining izchil amalga oshirilishini nazarda tutadi. Bu jarayonda ta'lim mazmuni, shakl va usullari, ta'lim vositalari hamda ishtirokchilar faoliyati o'zaro muvofiqlashtirilgan holda tashkil etiladi.

Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini raqamlashtirish asosida boshqarishning nazariy asoslari zamonaviy pedagogika, ta'lim menejmenti va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari integratsiyasida shakllanadi (1-jadval).

**Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini raqamlashtirish orqali
boshqarishning nazariy asoslari**

№	Nazariy asos	Mazmuni	Asosiy g'oyasi	Amaliy ahamiyati
1	Tizimli yondashuv	Ta'lim jarayonini o'zaro bog'liq elementlar tizimi sifatida qarash	Barcha komponentlarni integratsiyalash	Boshqaruvning yaxlitligini ta'minlaydi
2	Kompetensiyaviy yondashuv	Talabalarda amaliy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish	Natijaga yo'naltirilgan ta'lim	Kadrlar sifatini oshiradi
3	Raqamli ta'lim konsepsiyasi	Ta'limda AKT vositalarini qo'llash	LMS, platformalar, onlayn resurslar	Ta'limni avtomatlashtiradi
4	Data-driven boshqaruv	Ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish	Analitika va monitoring	Samarali boshqaruvni ta'minlaydi
5	Innovatsion yondashuv	Yangi pedagogik va raqamli texnologiyalarni joriy etish	Masofaviy va aralash ta'lim	Moslashuvchan ta'lim muhitini yaratadi
6	Monitoring va baholash nazariyasi	Ta'lim natijalarini doimiy nazorat qilish	KPI va baholash tizimlari	Ta'lim sifatini oshiradi

Ushbu jarayon, avvalo, ta'lim tizimini yaxlit tizim sifatida qarashga asoslangan bo'lib, tizimli yondashuv uning asosiy metodologik poydevorini tashkil etadi. Bu yondashuvga ko'ra, o'quv jarayonining barcha elementlari — maqsad, mazmun, metodlar, vositalar va natijalar o'zaro bog'liq holda faoliyat yuritadi.

Shu bilan birga, kompetensiyaviy yondashuv ta'lim natijalarini aniq belgilash va talabalarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv raqamlashtirish sharoitida yanada ahamiyat kasb etib, talabalarning mustaqil ta'lim olish qobiliyati va raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Raqamli ta'lim konsepsiyasi o'quv jarayonini raqamli muhitda tashkil etishni nazarda tutadi. Bu jarayonda LMS, elektron platformalar, raqamli kutubxonalar va onlayn ta'lim resurslaridan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ta'lim jarayonini avtomatlashtirish orqali inson omili bilan bog'liq xatolar kamaytirilib, boshqaruv jarayonlari optimallashtiriladi.

Ma'lumotlarga asoslangan (data-driven) boshqaruv yondashuvi esa ta'lim jarayonida to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish orqali aniq va samarali qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Bu ta'lim sifatini oshirish va o'quv jarayonini doimiy ravishda takomillashtirib borishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, innovatsion yondashuvlar — masofaviy va aralash ta'lim, elektron resurslardan foydalanish, individual ta'lim trayektoriyalarini shakllantirish kabi yo'nalishlarni qamrab olib, ta'lim jarayonini yanada moslashuvchan va samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Monitoring va baholash nazariyasi esa ta'lim natijalarini doimiy nazorat qilish, tahlil qilish va sifatni ta'minlashning muhim mexanizmi sifatida xizmat qiladi.

Ushbu nazariy asoslar oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini raqamlashtirishni boshqarish bo'yicha kompleks va strategik yondashuvni ishlab chiqishga yordam beradi, o'qitish va boshqaruv funksiyalarini yaxshilash uchun texnologiyadan samarali foydalanishni ta'minlaydi.

Raqamlashtirish butun dunyo bo'ylab ta'lim berish usulini tubdan o'zgartirdi. So'nggi yillarda ko'plab mamlakatlar oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarishda raqamli texnologiyalarni keng joriy etib kelmoqda. Bu jarayon ta'limning moslashuvchanligini oshirish, boshqaruv samaradorligini kuchaytirish hamda o'quv jarayonini real vaqt rejimida monitoring qilish imkonini bermoqda.

AQSh ta'lim tizimida Canvas, Blackboard va Google Classroom kabi LMS platformalari orqali o'quv jarayoni to'liq raqamli muhitda boshqariladi. Ushbu tizimlar talabalarning faoliyatini monitoring qilish, baholashni avtomatlashtirish hamda Big Data asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi. Bu yondashuv ta'lim jarayonini ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv modeliga o'tkazgan.

Buyuk Britaniyada Moodle va Microsoft Teams Education platformalari asosida aralash ta'lim (blended learning) keng qo'llanilib, elektron imtihonlar va avtomatik baholash tizimlari orqali ta'lim sifati nazorati ta'minlanadi. Bu esa ta'lim jarayonining standartlashtirilishi va shaffofligini kuchaytiradi.

Finlyandiya tajribasida esa individual yondashuv ustuvor bo'lib, sun'iy intellekt asosida o'quvchilarning shaxsiy rivojlanish trayektoriyalari shakllantiriladi. Tizim har bir o'quvchiga moslashtirilgan o'quv resurslarini taklif etadi, bu esa adaptiv ta'lim modelini rivojlantiradi.

Janubiy Koreyada Smart Education konsepsiyasi doirasida elektron darsliklar, AI tutorlar va 5G texnologiyalari asosida real vaqt rejimidagi o'qitish tizimlari joriy etilgan. Bu ta'lim jarayonining yuqori darajada avtomatlashtirilishini ta'minlaydi.

Singapurda esa Smart Nation Education strategiyasi asosida barcha ta'lim muassasalari yagona bulutli platformaga integratsiya qilingan bo'lib, bu tizim real vaqt monitoringi va markazlashgan boshqaruvni ta'minlaydi.

Umuman olganda, xorij tajribasi raqamlashtirishning asosiy yo'nalishlarini ko'rsatadi: ta'lim jarayonini avtomatlashtirish, sun'iy intellekt va "Big Data"dan foydalanish, individual yondashuvni rivojlantirish hamda integratsiyalashgan boshqaruv tizimlarini joriy etish. Bu esa ta'lim sifatini oshirish va boshqaruv samaradorligini kuchaytirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning **"Oliy ta'limni raqamlashtirish sharoitida o'quv jarayonini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish tizimi"** deb nomlangan ikkinchi bobida oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini raqamlashtirish asosida boshqarish mexanizmlari chuqur tahlil qilingan. Shuningdek, ishlab chiqilgan modelning samaradorligi o'rganilib, uning amaliy natijalari asosida xulosalar berilgan hamda o'quv jarayonini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga doir ilmiy asoslangan takliflar bayon etilgan.

Oliy ta'lim muassasalarida raqamlashtirishga asoslangan ta'lim jarayonini boshqarish mexanizmi ta'lim faoliyatining turli yo'nalishlarini takomillashtirish va tartibga solish maqsadida raqamli texnologiyalar hamda axborot tizimlarini integratsiyalashni nazarda tutadi. Ushbu mexanizm o'quv jarayonini rejalashtirish, tashkil etish, monitoring qilish va baholash jarayonlarini avtomatlashtirish orqali boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini raqamlashtirish asosida boshqarish, asosan, zamonaviy axborot texnologiyalari va integratsiyalashgan boshqaruv tizimlari yordamida amalga oshiriladi. Bugungi kunda ko'plab oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini boshqarishda muhim tarkibiy bo'g'in sifatida registrator ofisi faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Shu o'rinda, registrator ofisi tushunchasini aniqlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Registrator ofisi — bu talabalarning o'quv faoliyatiga oid ma'lumotlarini boshqarish, ularning akademik harakatini (ro'yxatdan o'tish, fan tanlash, baholarni qayd etish, akademik qarzдорlikni nazorat qilish) yuritish hamda o'quv jarayoniga oid rasmiy hujjatlarni tartibga solish bilan shug'ullanuvchi markazlashgan tuzilmadir.

Uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

— talabalarni o'quv jarayoniga ro'yxatdan o'tkazish va qayta ro'yxatlashni tashkil etish;

— o'quv reja va fanlarni tanlash jarayonini boshqarish;

— talabalar o'zlashtirish natijalarini qayd etish va nazorat qilish;

— akademik ma'lumotlar bazasini yuritish va yangilab borish;

— o'quv jarayoniga oid statistik tahlillarni shakllantirish.

Demak, registrator ofisi raqamli boshqaruv tizimining muhim elementi bo'lib, u o'quv jarayonining shaffofligi, tezkorligi va samaradorligini ta'minlashda asosiy rol o'ynaydi.

Shuningdek, oliy ta'lim tizimida o'quv jarayonini raqamlashtirish sharoitida sifat monitoringi alohida ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda davlat mulkchiligi shaklida faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatining vazirlik darajasida markazlashgan monitoring tizimini yo'lga qo'yish, bir tomondan, oliy ta'lim muassasalarining mas'uliyatini oshirishga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, takomillashtirish zarur bo'lgan yo'nalishlarni har bir oliy ta'lim tashkiloti kesimida aniq belgilab olish imkonini beradi.

Bundan tashqari, mazkur yondashuv moliyaviy resurslarni manzilli va samarali yo'naltirish, shuningdek, oliy ta'lim sifatini kafolatlashga qaratilgan strategik qarorlarni ishlab chiqishda dalillarga asoslangan boshqaruv mexanizmlarini joriy etishga zamin yaratadi. Shu jihatdan, ta'lim sifatini boshqarishda ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish (evidence-based decision making) muhim o'rin tutadi.

Ta'lim sifatini monitoring qilish va baholash jarayonida zarur ma'lumotlarni tizimli ravishda yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Ayniqsa, respublika miqyosidagi davlat oliy ta'lim muassasalari bo'yicha markazlashgan monitoring tizimini raqamlashtirish asosida yuritish ish

yukini sezilarli darajada kamaytirib, vaqt va resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi hamda jarayonlarning shaffofligini ta'minlaydi.

Ta'lim sifatini monitoring qilish va baholash quyidagi manbalar hamda usullar yordamida amalga oshirilishi tavsiya etiladi (2-jadval).


2-jadval

Ta'lim sifatini monitoring qilish va baholash indikatorlari, manbalari hamda usullari

№	Indikator	Ma'lumot manbasi	Ma'lumot yig'ish usuli
1.	Talabalarning bitiruv darajasi	HEMIS	Statistika
2.	Akademik sodiqlik va kursdan kursga o'tish darajasi	HEMIS	Statistika
3.	Talabalarning akademik samaradorligi	HEMIS	Statistika
4.	Talabalarning qoniqish darajasi	HEMIS	So'rovnoma
5.	Bitiruvchining ishga layoqatlilik darajasi	HEMIS	Statistika
6.	Ish beruvchilarning fikr-mulohazalari	https://survey.edu.uz	So'rovnoma
7.	Tadqiqot natijalari	HEMIS	Statistika
8.	Talaba-o'qituvchilar nisbati	HEMIS	Statistika
9.	Professor-o'qituvchilarning o'quv-uslubiy faolligi	HEMIS yoki https://adabiyot.edu.uz platformasi	Statistika
10.	Professor-o'qituvchilar tomonidan yaratilgan va muassasa veb-saytiga joylashtirilgan videodarslar soni hamda sifati	Veb-sayt	Kuzatish

Belgilangan indikatorlar bo'yicha oliy ta'lim muassasalarini baholash mezonlari ishlab chiqilgan bo'lib, unga ko'ra oliy ta'lim muassasalari qo'lga kiritishi mumkin bo'lgan eng yuqori ko'rsatkich 50 ballni tashkil etadi. Bunda 45 balldan yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan OTM "yuqori ta'lim sifatiga ega" (yashil toifa), 33-44 ball – "yetarli ta'lim sifatiga ega" (sariq toifa), 33 dan past natija – "yaxshilanishni talab etadi" (qizil toifa) tartibida xulosa qilinadi. Ta'lim sifatining yillik monitoringi asosida oliy ta'lim muassasalarini bunday toifalarga ajratish vazirlik tomonidan e'tibor qaratilishi zarur bo'lgan jabhalarni belgilab olish imkoniyatini yaratadi.

Oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayoniga raqamlashtirishning joriy etilishi bilan o'quv jarayonini takomillashtirish va talabalar bilimi sifatini oshirish uchun ushbu resurslardan foydalangan holda o'quv modelini ishlab chiqish vazifasi paydo bo'ldi. Ta'lim jarayonini rejalashtirish, tashkil etish, monitoring qilish va baholash bosqichlarini yagona raqamli tizim doirasida birlashtirish, boshqaruv qarorlarini avtomatlashtirish hamda ta'lim sifatini oshirish maqsadida model ishlab chiqildi (1-rasm).



1-rasm. O'quv jarayonini raqamlashtirish orqali boshqarish modeli

Biz taklif qilayotgan model oldindan belgilangan maqsadga ega bo'lib, unga erishish uchun zarur bo'lgan usullar va vositalar to'plami, shuningdek, amalga oshirilayotgan harakatlarni baholash hamda tizimning ishlash samaradorligini aniqlash parametrlarini o'z ichiga oladi.

Modelning strukturaviy sxemasi asosida kompleks o'quv jarayonini raqamlashtirish orqali boshqarish modeli shakllantirildi. Ushbu model oliy ta'lim tizimini raqamlashtirish asosida o'quv jarayonini samarali boshqarishga yo'naltirilgan aniq maqsadni o'zida mujassam etadi.

Mazkur modelning amaliy ahamiyati shundan iboratki, u o'quv jarayonining barcha bosqichlarini — rejalashtirish, tashkil etish, amalga oshirish, monitoring qilish va natijalarni tahlil etishni yagona integratsiyalashgan raqamli tizim doirasida birlashtiradi. Bu esa boshqaruv jarayonlarining shaffofligini oshirish, qaror qabul qilish samaradorligini kuchaytirish hamda ta'lim sifatini doimiy nazorat qilish imkonini beradi.

Shuningdek, model zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan holda talabalar va o'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro aloqani optimallashtirish, individual ta'lim trayektoriyalarini shakllantirish hamda ta'lim jarayonini moslashuvchan va interaktiv tarzda tashkil etishga xizmat qiladi.

Natijada, taklif etilayotgan model oliy ta'lim muassasalarida raqamli transformatsiya jarayonlarini qo'llab-quvvatlovchi ilmiy-metodik asos sifatida xizmat qilib, o'quv jarayonini boshqarishning innovatsion va samarali mexanizmini ta'minlaydi.

Bugungi kunda raqamlashtirish orqali oliy ta'lim muassasalarini rivojlantirish va o'quv jarayonini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb mavzuga aylandi. Ushbu rejaning asosiy maqsadi oliy ta'limni raqamlashtirish asosida o'quv jarayonini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha aniq taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun o'quv jarayonini raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish va boshqarishning ilmiy-metodik mexanizmlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Taklif etilayotgan mexanizm o'zaro bog'liq bo'lgan bosqichlar tizimiga asoslanib, o'quv jarayonini rejalashtirish, tashkil etish, amalga oshirish, monitoring qilish va takomillashtirish jarayonlarini qamrab oladi.

Mexanizmning birinchi bosqichi — maqsadli bosqich bo'lib, unda ta'lim jarayonini raqamlashtirish orqali ta'lim sifatini oshirish, o'quv jarayonini avtomatlashtirish hamda raqamli ta'lim muhitini shakllantirish kabi ustuvor vazifalar belgilanadi. Ushbu bosqichda strategik maqsadlar aniqlanib, ularni amalga oshirishning umumiy yo'nalishlari belgilab beriladi.


Ikkinchi bosqich — tashkiliy bosqich hisoblanib, mazkur bosqichda ta'lim jarayonini raqamli muhitga o'tkazishning institutsional va tashkiliy asoslari yaratiladi. Jumladan, elektron ta'lim platformalarini joriy etish, LMS, HEMIS va CMS kabi axborot tizimlarini integratsiya qilish, masofaviy va aralash ta'lim shakllarini tashkil etish hamda raqamli ta'lim resurslari bazasini shakllantirish ishlari amalga oshiriladi.

Uchinchi bosqich — texnologik (amaliy) bosqich bo'lib, unda raqamli ta'lim texnologiyalari amaliyotga joriy etiladi. Bu bosqichda dasturiy ta'minot va ta'lim platformalaridan samarali foydalanish, avtomatlashtirilgan baholash tizimini joriy etish, raqamli kutubxona va elektron darsliklardan keng foydalanish, shuningdek, Big Data va analitik vositalar orqali o'quv jarayonini monitoring qilish ta'minlanadi.

To'rtinchi bosqich — monitoring va baholash bosqichi bo'lib, unda o'quv jarayonining holati va samaradorligi doimiy ravishda nazorat qilinadi. Talabalar faoliyatini onlayn kuzatish, KPI va reyting tizimlarini qo'llash, raqamli test va baholash usullaridan foydalanish hamda ta'lim sifati tahlilini amalga oshirish mazkur bosqichning asosiy vazifalarini tashkil etadi.

Beshinchi bosqich — tahlil va takomillashtirish bosqichi hisoblanib, unda olingan natijalar asosida o'quv jarayoni qayta tahlil qilinadi. Aniqlangan muammolarni bartaraf etish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish va mexanizmni takomillashtirish choralari ishlab chiqiladi. Bu esa tizimning doimiy rivojlanishini ta'minlaydi.

Mazkur mexanizm o'quv jarayonini raqamli texnologiyalar asosida samarali tashkil etish va boshqarishni ta'minlovchi o'zaro bog'liq bosqichlar tizimini aks ettiradi (2-rasm).



2-rasm. Oliy ta'limni raqamlashtirish asosida o'quv jarayonini boshqarish mexanizmi

Shu tariqa, mazkur mexanizm o'quv jarayonini raqamlashtirish orqali boshqarishning uzluksiz va integratsiyalashgan modelini ifodalaydi. Uning amalga oshirilishi natijasida ta'lim sifati oshadi, boshqaruv samaradorligi yuksaladi hamda talabalarning raqamli kompetensiyalari rivojlanadi.

Dissertatsiyaning **“Oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayonini boshqarishda raqamlashtirishning samaradorligi”** deb nomlangan uchinchi bobida raqamlashtirish asosida o'quv jarayonini boshqarish yondashuvi doirasida amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlarining tashkil etilishi hamda ularning natijalari batafsil statistik tahlil asosida yoritilgan.

Ushbu bob doirasida oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini raqamlashtirish orqali boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan empirik tadqiqot tashkil etildi va uning natijalari ilmiy-statistik usullar yordamida tahlil qilindi.

Tajriba-sinov ishlari O'zbekiston Respublikasining uchta oliy ta'lim muassasasida — Andijon davlat universiteti, Buxoro davlat pedagogika instituti va Guliston davlat pedagogika institutida amalga oshirildi. Tadqiqotga jami 346 nafar respondent jalb etildi. Mazkur tanlanma hajmi tadqiqot natijalarining reprezentativligi va statistik ishonchliligini ta'minlashga xizmat qildi.

Tadqiqot doirasida tanlab olingan oliy ta'lim muassasalari mamlakatning uch xil hududida joylashgan bo'lib, bu holat tajriba-sinov ishlarining hududiy qamrovini kengaytirish hamda olingan natijalarning umumlashtirilish darajasini oshirishga xizmat qildi.

Tajriba-sinov ishlarida oliy ta'lim muassasalarida raqamlashtirish asosida o'quv jarayonini boshqarish samaradorligini baholash maqsadida bir qator asosiy mezonlar ishlab chiqildi. Ushbu mezonlar tizimning kompleks tahlilini ta'minlashga xizmat qiladi (3-jadval).

3-jadval

Tajriba-sinov bo'yicha mezonlar va ularning tasnifi

№	Mezon nomi	Ko'rsatkichlar	Tavsifi
1	Xizmat ko'rsatish sifati	Tezkorlik, aniqlik, qulaylik, murojaatlarga javob berish darajasi	Talabalar va foydalanuvchilarga ko'rsatilayotgan xizmatlarning samaradorligi va sifat darajasini ifodalaydi. Raqamlashtirish asosida xizmat ko'rsatish jarayonlarining avtomatlashuvi orqali xizmat sifatining oshishi kuzatiladi.
